ÖZBEKISTON RESPUBLIKASI
TA'LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

«TASDIQLAYMAN»
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor v.v.b
_____A.Berdibaev
"28"- oktyabr 2026 jil

10.00.02 – Özbek mumtoz adabiyoti ixtisosligi böyiça tayanç doktoranturaga kiriş imtihoni DASTURI

NUKUS – 2026

K I R I Ş

Mazkur dastur 10.00.02 – Özbek мумтоз adabiyoti ixtisosligi böyiça tayanç doktoranturaga kiriş imtihoni uçun möljallangan bölib, hozirgi adabiy jarayon va adabiy tanqid, şuningdek, zamonaviy adabiyotning dolzarb muammolar, adabiy yönalişlar, nazariy ta'limotlarga oid bilim va könikmalarni tekşiriş va baholaşga möljallangan holda uçun işlab çiqilgan. Dastur Özbekiston Respublikasi davlat ta'lim standarti, "Ta'lim töğrisida"gi va "Kadrlar tayyorlaş Milliy dasturi töğrisida"gi qonunlari asosida va uning talablariga muvofiq tuzildi.

Dastur özbek tili va adabiyoti bakalavr ta'dim yönalişi va magistratura mutaxassisligida ötiladigan fanlar doirasida 10.00.02 – Özbek mumtoz adabiyoti ixtisosligi uçun tuzilgan. Dasturda Özbek adabiyoti tarixi fani bilan birgalikda Mumtoz tarixiy poetika, Adabiyotşunoslik tarixi, Jadid adabiyoti tarixi, Aruz va mumtoz poetika kabi fanlar doirasidagi mavzu va ilmiy muammolar aks etgan.

Dastur Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Kengaşisining 2026-yil ____- _____dagi ____-sonli yiğilişida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Tuzuvçilar: **S.Bekçanova –** filologiya fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), dotsent (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti)

S.Matyakupov – filologiya fanlari doktori (DSc), профессор. (Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti)

Taqrizçilar: **I.Yoqubov** – filologiya fanlari doktori, professor (Toşkent davlat özbek tili va adabiyoti universiteti).

H.Abdullayev – filologiya fanlari nomzodi, professor (Qoraqalpoq davlat universiteti).

ÖZBEK MUMTOZ ADABIYOTI FANI METODOLOGIYASI

Fanning maqsad va vazifalari. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ilmiy izlanişlar bilan amaliyot çambarças bog‘liq holda olib borilişi natijasida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustivor yönalişlardan kelib çiqqan holda oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlaşning sifatini oşiriş, magistratura talabalarining öquv va ilmiy işlarini olib borişlarini hamda ular bilan alohidaalohida ötkaziladigan mustaqil ta’lim sifatini amalga oşirişni talab qilmoqda.

Özbek adabiyoti tarixi

Mumtoz adabiyotning genezisi, şakllanişi va taraqqiyoti omillari. Mumtoz adabiyotning şakllanişidagi asosiy omillar: mifologiya va uning yozma adabiyot taraqqiyotidagi örni; xalq oğzaki ijodi va mumtoz adabiyot munosabatlari, tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot. Islomgaça bölgan turli diniy ta’limotlar (zarduştiylik, moniylik, buddaviylik va b.)ning yozma adabiyot yuzaga kelişidagi roli.

“Avesto” adabiy manba sifatida. Ieroglifik va piktografik yozuvlar. Mixxatlar va runiy yozuvlardagi ilk manbalar. “Avesto” qadimgi mif va afsonalar majmui sifatida. Zarduşt şaxsi haqidagi ma’lumotlar. Uning tarkibiy tuzilişi. Asosiy qism va Zandlar. “Avesto”ning ilmiy-tarixiy qimmati. “Avesto” adabiy manba sifatida. Asardagi yetakçi qahramonlar va timsollar.

Örxun-Enasoy obidalari. Moniylik va buddaviylik adabiyoti. Örxun-Enasoy obidalari adabiy manba sifatida. Yodgorliklarning yaratiliş tarixi va tarqaliş örni. Bilga xoqon yodgorligida Vatan. Kul Tegin yodgorligi. Örxun-Enasoy toşbitiklari tarixiy manba sifatida. Toşbitiklarning til xususiyatlari, adabiy qimmati; janr xususiyatlari: tarixiy-qahramonlik dostonlari, qöşiq va yig‘i janrlari. Tönyuquq bitigi. Unda şaxs va millat erki. Irq bitigi (Ta’birnoma) adabiy manba sifatida. Moniylik mazmunidagi turkiy adabiyot. Moniylik şe’rlarining mavzusi. “Xuastuanif” (Moniylikning tavbanomasi) asarining öziga xos xususiyatlari. Budda mazmunidagi turkiy adabiyot. Markaziy Osiyoda buddaviylikning öziga xos xususiyatlari. “Oltin yorug‘” asarining turkiy xalqlar hayotidagi örni.

Turk-islom sulolalari davri adabiyoti: somoniylar, çağoniyon, g‘aznaviylar va saljuqiylar davri adabiyoti. Somoniylar, saljuqiylar, g‘aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Hadis töplaş an’anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning örni. Imom Buxoriy va at-Termiziy. “Al-jome’ as-sahih” va “Şamoliyi Muhammadiya” asarlari. Arab va fors tillaridagi adabiyot. XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot.

Qoraxoniylar davri adabiyoti: Mahmud Koşğariy va uning “Devonu lug‘oti-t-turk” asari. “Devonu lug‘oti-t-turk” – adabiy manba sifatida. Asarning yoziliş maqsadi haqida Mahmud Koşg‘ariy. “Devon”da adabiy janr namunalari: afsonalar, maqollar, marsiya va dostondagi boşqa törtliklarning xususiyatlari, bu haqda olimlarning qaraşlari. “Devonu lug‘oti-t-turk” asari orqali bizgaça yetib kelgan badiiyat namunalari. Alp Ertönga marsiyasi. Qadimgi afsona va qöşiqlar poetikasi. “Devonu lug‘otit turk”da munozara janrining ilk ildizlari. “Devon”dagi xalq maqollari poetikasi. Abdurauf Fitrat “Devonu luğotit-turk”dagi törtliklar

asosida dostonlar parçalarini tiklaganligi. Yusuf Xos Hojib (Bolasug‘uniy) va uning “Qutadg‘u bilig” asari. “Qutadğu bilig” va ijyimoiy-siyosiy hamda falsafiy masalalar. Dostonda Yusuf Xos Hojibning axloqiy va estetik qaraşlari. “Qutadğu bilig” va qoraxoniylar sulolasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Jamiyatdagi turli toifalar tavsifi. Asarda tarbiya masalalari. “Qutadg‘u bilig” da turkiy adabiyotning qadimiyligiga doir muallif işoralari. Qadimgi Şarq adabiyoti va “Qutadğu bilig” munosabatlari. Yusuf Xos Hojib öz davrining zukko adabiyotşunosi va mutafakkiri sifatida. Doston janrlari: masnaviy, qasida, törtlik va g‘azal unsurlari. Asarning bugungi kundagi ahamiyati.

Islomiy ruhdagi ma’rifiy adabiyot: Xoja Ahmad Yassaviy. Islom manbalarining badiiy adabiyotga ta’siri. Ma’rifatçilik adabiyotining boş g‘oyasi sifatida. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati. Hikmat janrining şakllanişi. “Devoni hikmat” an’analari. “Boqirg‘on kitobi”da ma’rifiy ğoyalar. Yassaviy maktabi şoirlari ijodi. Yassaviylik va hikmat janrining XX asrga qadar rivojlanişi.

Ta’limiy adabiyot: Adib Ahmad Yugnakiy. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining örganiliş tarixi. odining örganiliş tarixi. “Hibat ul-haqoyiq”. Asar mavzui va tarkibi. Alişer Navoiy Ahmad Yugnakiy haqida. “Munşaot” asarida “Hibatu-l-haqoyiq”dan keltirilgan törtlikning ma’lum tarixiy voqea bilan bog‘liq jihati. Asar haqidagi bahs-munozaralar. Abdurauf Fitrat “Hibatu-l-haqoyiq” haqida. Hadislar asosida badiiy asar yaratiş an’anasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Çingizxon istilosi davri adabiyoti. Pahlavon Mahmud va Rabg‘uziy. Pahlavon Mahmud hayoti va faoliyati. Ruboiylari va ularning badiiyati. Nosiriddin Rabğuziy hayoti va ijodi. Şarq adabiyotida “Qisas ul-anbiyo”larning qisqaça tarixi. “Qisasi Rabg‘uziy” (“Qisas ul-anbiyo”) – asarining yaratilişi, tarkibiy tuzilişi. Asarda qissa, hikoyat, rivoyat janrlari. Şe’riy janrlar: latifa, hikmat janri. Asardagfi şe’riy parçalarning badiiyati: vazn, qofiya va şe’riy san’atlar.

Oltin Örda adabiyoti. Sayfi Saroyi, Mahmud ibn Ali Kordariy. Oltin Örda davlatining taşkil topişi. Oltin Ördadagi madaniy va adabiy hayot. Oltin Ördaning tanazzuli. Mamluklar davlati va adabiyoti. Oltin Ördadagi madaniy hayotning mamluklar davlatiga köçib ötişi. Mamluklar davlatida turkiy tildagi luğatlar, ilmiy asarlarning yaratilişi. Sayfi Saroyi hayoti va ijodining manbalari. Lirikasining janr xususiyatlari, mavzular kölami. Mamluklar davlatida Sayfi Saroyining mavqeyi. Zamondoş şoirlarga şe’riy javoblari. “Gulistoni bit-turkiy” asarining tarkibi. “Gulistoni bit-turkiy” va Sa’diy “Guliston”i. Saroyining “Gulistoni bit-turkiy”si. “Suhayl va Guldursun” dostoni. Uning tuzilişi va g‘oyaviy mundarijasi. Mahmud ibn Ali Kordariyning “Nahju-l-farodis” asari özbekadabiyotida agiografik asarlarning yirik namunasi. Asarning tuzilişi, janr xususiyatlari. Agiografik asarlarning özbek mumtoz adabiyotidagi örni.

Temuriylar davri adabiyoti. Tarixiy şaroit va madaniy muhit. Temur va temuriylar davrida ötkazilgan madaniy islohotlar. Ilm-fan taraqqiyoti. Tarixnavislik Temuriylar davri tarixiga bağişlangan asarlar. Badiiy ijod sohasida turli yönalişlarning vujudga kelişi. Adabiy-estetik qaraşlarning tadrijiy takomili. Adabiy tur va janrlar poetikasi. Janrlar xilma-xilligi. Devon tuziş an’anasi. Xamsanavislik. Memuar asarlar. Adabiyotşunoslikka oid asarlar. Individual ijodiy uslub muammosi. Uşbu davrda faoliyat körsatgan yirik şoir va adiblar ijodiga

qisqaça tavsif.

Dunyoviy adabiyotning şakllanişi. Xorazmiy va Atoiy. Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. Tarjimai holiga doir ma'lumotlar. Özbek adabiyotida noma janrining ilk ildizlari: "Qutadğu bilig"da noma janrining dastlabki körinişi. "Muhabbatnoma"ning nusxalari va tuzilişi. Asarda işqning uluğlanişi. Asardagi janrlar tizimi. Noma janri rivojiga hissa qöşgan buyuk ijodkorlar: Xöjandiy va uning "Latofatnoma" asari, Sayyid Ahmad va uning "Taaşşuqnoma" asari, Yusuf Amiriy va uning "Dahnoma" asari. Nomalar tuzilişidagi farqlar. Atoiy hayoti va ijodining manbalari, örganilişi. Şoirning lirik merosi: janr xususiyatlari va badiiyati. Ğazallarining tasavvufiy talqini. Özbek adabiyotida Atoiy ijodining örni.

Lutfiy va Haydar Xorazmiy ijodi. Lutfiy hayoti va ijodining manbalari. Navoiy Lutfiy haqida. Lutfiy tuyuqlari va ğazallari. Lutfiy devoni. Lutfiyning forsiy nazmiyalari. Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi. Haydar Xorazmiyning ijodiy me'rosi. "Gulşan ul-asror" hamda "Gul va Navröz" asarlari. "Gulşan ulasror"dagi hikoyalarning g'oyasi, maqsadi. Sakkokiy va Gadoiy ijodi. Sakkokiy hayoti va ijodining manbalari örganilişi. Adabiy merosi. Sakkokiy "Devon"i. Uning tuzilişi, qölyozma nusxalari. Sakkokiy – qasidanavis. Temuriylar davri şe'riyatidagi uslubiy özgarişlar. Çiğatoy tili va çig'atoy adabiyotining temuriylar davridagi takomili. Gadoiy hayoti va ijodining manbalari. Şe'riyati. "Devon"idagi asosiy janrlar tasnifi. Asarlarining badiiyati, vazn xususiyatlari.

XV asr Hirot adabiy muhiti va Husayniy (Husayn Boyqaro) ijodi. Hirot adabiy muhitining şakllanişi. Navoiy va Husayniyning adabiy muhit taşkilotçilari sifatida. Navoiy "Majolis un-nafois"da adabiy majlislar xususida. Qosim Anvor, Şayxim Suhayliy, Xoja Osafiy, Kamoliddin Binoiy kabi şoirlar, Hasan Noiy, Xoja Abdulloh Marvoriy, Mirxond, Xondamir, Sultonali Maşhadiy, Abdujamil kotib, Mirak, Behzod. Husayniy haqida Navoiy fikrlari. Alişer Navoiy "Munojot"ida Husayniy şaxsining yoritilişi. Husayniy "Devon"i. Janrlar tarkibi, badiiy xususiyatlari. "Risola" asari mundarijasi. Husayniy ijodining özbek adabiyotidagi örni.

Alişer Navoiyning hayoti va tarjimayi holi. Navoiyşunoslik tarixidan. XX asr özbek navoiyşunosligi. Alişer Navoiy ijodining ilmiy mezonlar asosida örganilişi. Navoiy ijodining xorijda tadqiq etilişi. Navoiyşunoslik muammolari. Alişer Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati. Şoir hayoti va ijodining manbalari. Navoiy haqida şoirning öz asarlaridagi ma'lumotlar. Xondamirning "Makorim ul axloq", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye" asarlari. Alişer Navoiyning lirik merosi. Devonlari. Ilk devon. "Badoye' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlari. "Xazoyin ul-maoniy" – lirik qomus sifatida. Kulliyotning yaratiliş tarixi, tarkibiy tuzilişi. Deboçada kulliyotning tuzilişi va devonlarning yaratilişi bilan boğliq masalalar. Kulliyotdagi devonlar tartibi va ularning özига xos xususiyatlari. "Devoni Foniy"ning tarkibiy tuzilişi, janr xususiyatlari. Devondagi g'azallar talqini.

Xamsaçilik Xamsanavislik an'anasi va Alişer Navoiy "Xamsa"si. Xamsaçilik tarixidan. Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviy "Xamsa"lari. Hirot adabiy muhitida xamsanavislik. Abdurahmon Jomiy "Xamsa"sining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alişer Navoiy beşligi birinçi turkiy "Xamsa" sifatida. "Hayrat

ulabror” – mundarijaviy doston. Dostonning tarkibiy tuzilişi, syujet tartibi va kompozitsiyasi. Maqolat va hikoyatlar tahlili. “Farhod va Şirin” dostonining timsollar olami. Dostonning muxtasar mundarijasi va timsollar olami. Farhod – ilohiy işq yöliga kirgan soliki majzub timsoli. Şirin – ilohiy mazhar. Dostondagi ramziy timsollar. Doston badiiyati. “Layli va Majnun” dostonida muallif badiiy niyatining ifodalanişi. “Layli va Majnun” – pok va yuksak muhabbat ifodasi. Dostonning yaratiliş tarixi. Dostonning g‘oyaviy mundarijasi, timsollar olami. Majnun – ilohiy işq yölidagi majzub timsoli. Dostonning badiiy xususiyatlari. “Sab’ai sayyor” dostonining tarkibiy tuzilişi, hikoyatlar tahlili. “Sab’ai sayyor” dostonidagi hikoyatlar tahlili. Şoh Bahrom timsoliga xos fazilat va ziddiyatlar. Dilorom – isle’dodli san’atkor, vafodor yor timsoli. Doston kompozitsiyasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

XVII asrdan XIX asrning ikkinçi yarmigaça (1865) bölgan davr adabiyoti. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va adabiy merosi Boburning tarjimai holi. Temuriylar taqdirida Samarqand. Boburning Samarqandga yurişi. Bobur ijodining boşlanişi. “Volidiya” asari. Bobur adabiyotşunos. “Boburnoma”da ijodkorlar va san’at ahllari tavsifi Bobur va Navoiy, Bobur va Husayn Boyqaro munosabatlari haqidagi ma’lumotlar. “Boburnoma”da tarixiy şaxslar timsoli. “Boburnoma”ning örganilişi va tarjimalari. Bobur şe’riyati. Buxoro adabiy muhiti. Davr madaniy hayotiga şarh. Siyosiy hayotdagi beqarorlik va sulolalar almaşinuvi. Adabiy hayotning öziga xos xususiyatlari. Xonliklar markazlarida adabiy muhitning şakllanişi va taraqqiyoti. Tazkiranavislik. Davr tazkiranavisligining öziga xos xusussiyatlari. Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarining ilmiy qimmati. Asarda XVI asr madaniy hayoti aks etiriş tamoyillari Mutribiy, Maliho Samarqandiy, Qori Rahmatullo Vozeh, Fazliy Namongoniy, Ahmad Tabibiy tazkiralari.

Şayboniyxon davrida adabiy hayot. Şayboniyxon hayoti va ijodi. Şoir devoni va uning janr xususiyatlari. Asarlarining mavzu va g‘oyaviy kölami. Şoir dunyoqaraşi va tariqati. Şayboniyxon ijodida lirik qahramon tabiati. Şe’riy mahorat qirralari. Muhammad Solih ijodi. “Şayboniynoma” jangnoma tipidagi doston sifatida. Asar mazmuni, tarixiy şaxslar va badiiy timsollar. Xoja ijodi. Hayoti va ijodi. Hikoyalari. “Gulzor” va “Miftoh ul-adl” asarlarining talqini.

Qul Ubaydiy va Turdi ijodiy merosi. Qul Ubaydiy merosi. “Kulliyot”ining yaratiliş tarixi va janr xususiyatlari. Şoirning şe’riy janrlar takomilidagi örni. Qul Ubaydiy şe’riyatida lirik qahramon tabiati. Dunyoqaraşi va tariqat masalalari. Şoir masnaviylari. Ularning mavzu va g‘oyaviy qamrovi. Şoir merosining timsollar olami. Turdi ijodi. Şoir hayoti voqealarining asarlari asosida tiklanişi. Turdi şe’riyatining janr xususiyatlari. Ğazal va muhammaslari. Subhonqulixon haqidagi hajviyasi. Asarda madaniy hayot tasviri.

Maşrab va Söfi Olloyor adabiy merosi. Maşrabning ijodiy merosi. Maşrabşunoslik tarixidan. Tazkiralardagi ma’lumotlar. “Qissayi Maşrab” asarining şoir dunyoqaraşi va hayotini örganişdagi ahamiyati. Şe’riyati. Maşrab lirik merosining mavzu doirasi. Asarlarida qalandariylik tariqatining aks etişi. Şe’riyatida ilohiy işq talqini. Timsollar olamining öziga xos jihatlari. Maşrab taxallusli şoirlar. “Mabdai nur” va “Kimyo” asarlari, ularning muallifligi masalasi.

Söfi Olloyor hayoti va asarlari. “Sabot ul-ojizin” asarida ma’rifiy masalalar. Ma’rifiy risolalarida naqşbandiylik ta’limotining yangilanişi.

Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot. Adabiy muhit va uningöziga xos jihatlari. Zullisonaynlik va Navoiy an'analarining davom ettirilişi. Zullisonaynlik va Navoiy an’analarining davom ettirilişi. Devon tuziş an’analarining takomillaştirilişi. Janrlar poetikasi. Tarixnavislik. Tarjima maktabining öziga xosligi, takomillaşuv tamoyillari. Bayozçilik, tazkiranavislik va noşirlikning taraqqiy etişi.

Abulg‘ozi Bahodirxon hayoti va ijodiy merosi. Abulg‘ozining ijtimoiy hayotdagi mavqeyi. Tarixiy asarlari. “Şajarayi tarokima” asari. Uning yoziliş va örganiliş tarixi. Asarning ilmiy-badiiy qimmati. “Şajarayi turk” asari qomusiy ma’lumotnoma ekanligi. Asarning özbek adabiyoti tarixidagi ilmiy-badiiy maqomi. Timsollar silsilasi. Adib mahorati masalasi.

Nişotiy hayoti va ijodi manbalari. Hayoti va adabiy merosi. Şe’riy devoni va bayozlar. Ularning qölyozmalari. Şoir şe’riyatining mavzu va g‘oyaviy qamrovi. Lirik qahramon tabiati. Asarlarining falsafiy asoslari. Şe’riy mahorati. “Quşlar munozarasi” asarida an’ana va yangilik. Ramziy timsollar talqini. “Husnu Dil” dostoni timsollar olami va undagi ramziylik.

Andalib ijodi. Andalib hayoti va ijodi. Tarjimai holi. Adabiy merosi. Doston va masnaviylari. “Zaynul arab”, “Yusuf va Zulayxo”, “Layli va Majnun” dostonlari. Dostonlar sujeti. Qur’oni Karim va hadis g‘oyalarining talqini. Andalib dostonlarining timsollar olami. Ularning öziga xos jihatlari. Şoir asarlariga xalq oğzaki ijodining ta’siri. Şe’riy mahorat masalalari.

Munis ijodi. Şermuhammad Munisning ijodiy faoliyati. Adabiy, ilmiy merosi. Devonlarining tuziliş tarixi va qölyozma nusxalari. “Munis ul- uşşoq” devoni. Devon tartibida an’ana va janrlar tarkibi. Şoir ijodida ularning takomillaşuvi. Lirik qahramon tabiati. Timsollar olami. Badiiy xususiyatlari. Munisning ilmiy merosi. “Savodi ta’lim” risolasining ilmiy-badiiy qimmati. Tarixiy asarlari. Tarjimalari. Adib ijodining özbek adabiyoti tarixidagi örni.

Ogahiy ijodiy merosi. Ogahiy hayoti va ijodi manbalari. Örganiliş tarixi. Şoirning adabiy-ilmiy merosi. “Ta’viz ul-oşiqin” devoni. Qölyozma nusxalari. Devonda deboçaning örni. Janrlar tarkibi. Mavzular doirasi va g‘oyaviy kölami. Şoirning timsol qöllaş mahorati. Şe’riyatida Alişer Navoiy ijodiga munosabat. Devondagi asarlar badiiyati. Ogahiy - tarixnavis. Tarixiy asarlarining qomusiy tabiati haqida. Ularning ilmiy va badiiy qimmati. Xorazm tarjima maktabida Ogahiyning örni. Tarjimalarining ahamiyati.

Qöqon xonligidagi madaniy hayot. Örganilişi. Adabiy muhitning şakllanişi va öziga xos xususiyatlari. Amiriyning adabiy muhit asosçisi va rahnamosi sifatidagi maqomi. Janrlar poetikasi. Adabiy muhitda xalq oğzaki ijodiga munosabat masalasi. Tarixnavislik, şe’riyat, nasr, matbaa işlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari yaratilişi. Tazkiranavislikning yangi şakllari. Fazliy Namangoniy rahbarligida tuzilgan tazkira. “Majmuai şoiron”ning özbek adabiyoti tarixidagi örni. Tuzilişi va janrlar tarkibi. G‘oziy ijodi. “Yusuf va Zulayxo” dostoni. Satirik va yumoristik asarlar. Maxmur adabiy merosi.

Xöjanazar Huvaydo hayoti va ijodi. Hayoti va faoliyati. Lirik merosi. Devonining tuzilişi va janr tarkibi. Şoirning dunyoqaraşi va badiiy mahorati. “Rohati dostoni. Asarning tuzilişi. Asar kompozitsiyasida hikoyatlarning örni. Timsollar olami. Huvaydoning dostonnavis sifatidagi mahorati.

Amiriy hayoti va ijodi manbalari. Örganiliş tarixi. Adabiy maktab asosçisi ekanligi. Tarjimai holi. Amiriy devoni. Devon qölyozmalari. Asarlarining kölami vav janr xususiyatlari. Devonda deboçaning örni. Şe’rlarining mavzu doirasi va g‘oyaviy qamrovi. An’ana va yangilik. Timsollar olami. Lirik qahramon tabiati. Badiiy mahorati.

Gulxaniy ijodiy merosi. Gulxaniy hayoti va ijodi. Örganiliştarixi. Şe’riy merosi. Janrlar tarkibi. Mavzu kölami. Timsollar mohiyati. “Zarbulmasal” asari. Asar tarkibi va majoziy tabiati. Badiiy xususiyatlari. Gulxaniyning “Zarbulmasal”da timsol yaratiş mahorati. Badiiy san’atlarning qöllaniş tamoyillari.

Amir Umarxon adabiy maktabi. Uvaysiy adabiy merosi. Nodira hayoti va ijodi. Amir Umarxon va uning jamoat va davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Amiriy merosi. Devoni, uning tarkibi, janr tizimi. Amiriy şe’riyati badiiyati. “Amirnoma” asarining muallifligi masalasi. Uvaysiy va Mohlaroyim Nodira ijodi. Örganiliş tarixi. Adabiy merosi. Şe’riyatining mavzu va g‘oyaviy kölami. Uvaysiy ijodida işq talqini. Ijtimoiy hayotga munosabati. Asarlarining timsollar olami. Lirik qahramon tabiati. Uvaysiylik bilan munosabat masalasi. Badiiy san’atlarni qöllaş mahorati. “Şahzoda Hasan” va “Şahzoda Husayn” dostonlari. Dostonlarning syujet va kompozitsiya jihatdan özига xosligi. Şoiraning dostonnavislik mahorati. Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Nodira va Umarxon munosabatlari. Nodira ijodiga Uvaysiyning adabiy ta’siri. Nodiraning şe’riy merosi. Devondagi g‘azal, muxammas, ruboiy, fard kabi janrlar tabiati. Nodira şe’riyatining mavzu qamrovi. Işq va sadoqat, visol va hijron tarannumi.

XIX asrning 2-yarmi XX asr boşlari mustamlaka davri adabiyotining xususiyatlari. Milliy uyg‘oniş davrining özbek adabiyotining ikki bosqiçi: “Ilk mustamlakaçilik davri adabiyoti” (1865-1905) va “Jadidçilik va jadid adabiyoti” (1905-1929). Adabiyotning mustamlakaçilikka qarşi kuraşga otlanişi. Yangi adabiy janrlar vujudga kelişi, şe’riy vaznning yangilanişi. Şe’riy manzumalar, sayohatnomalar, maktubotlar turkumi yaratildi.

Muqimiy va Furqat ijodi. Hayoti va adabiy merosi örganilişi tarixi. Muqimiy ijodiy merosi: lirikasi, hajviyoti. “Tanobçilar” hajvida mahalliy hayot aksi. “Sayohatnoma”lari. Furqat faoliyati va ijodiyoti. Furqatşunoslik tadriji. Şe’riyati. Mumtoz şe’riyatning davomçisi sifatida. Nasriy asarlari. “Sarguzaştnoma”. Yangiça Ma’rifatparvarlik faoliyati. Furqatning çet ellardagi faoliyati.

Xiva adabiy muhiti. Feruz va Ahmad Tabibiy ijodi. Xonlikning içki moddiy va ma’naviy hayoti. Muhammad Rahimxon II – Feruz va Rossiya istiloçilik siyosati. Feruz va Xorazm adabiy muhiti. Feruz – maorif homiysi va taraqqiyparvar. Ilk matbaaçilik va adabiy meros tarğibidagi xizmatlari.

Tabibiy va mumtoz adabiyot. Lirik merosi. “Vomiq va Uzro” dostoni. Tabibiyning san’at, musiqa, xattotlik sohasidagi faoliyati. Tabibiy tazkiralarining adabiyotşunoslikdagi örni. Komil Xorazmiy ijodiy merosining örganilişi tarixi.

Komil ijodida ma’rifatparvarlik. Komil va Feruz munosabatlari. Ijodiy merosi, “Devon”ining janrlar tarkibi.

Mumtoz adabiyotda an’anaviy mavzu va obrazlar. Özbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik asar, epik asar misolida). An’anaviy obrazlar genezisi va rivojlanişi tadriji. Şarq adabiyoti uçun umumiy bölgan obrazlar tasnifi va tavsifi. Ramz va timsollar olami. Özbek mumtoz adabiyotida majoz tarixi. Badiiy matn talqinida ramz va timsollarning muayyan adabiyotgan daxldorligini e’tiborga oliş zarurati. Rang, son, tabiat aşyolariga oid ramziy timsollar va ularning ma’nolari.

Özbek mumtoz poetikasi asoslari. Mumtoz poetika haqida umumiy ma’lumot. Ilmlar uçligi va ularning mumtoz poetikani örganişdagi ahamiyati. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qaraşlar. Baloğat ilmi. Uning tarixi va tadrijiy takomili. Fasohat. Ilmi bayon. Baloğat ilmida taşbeh. Haqiqat va majoz. Istiora. Arabiy manbalarda baloğat ilmiga berilgan baho. Forsiy manbalarda baloğat ilmi. Baloğat ilmining sof adabiyotşunoslikdagi talqini. Ilmi aruz, ilmi bade’, ilmi qofiya.

Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va şe’r nav’lari. Adabiy tur tuşunçasi va uning ifodalaniş şakllari (nasr, nazm). Baytli şe’r şakllari. Ğazal, qasida va mustazod janrlari. Kiçik lirik janrlar tavsifi.

Aruz va poetika asoslari. Aruz haqida, uning tarixi haqida umumiy tuşunça. Aruzning boşqa şe’riy tizimlardan farqli va umumiy jihatlari. Şe’riy tizimlarning özgarişiga sabab böladigan ijtimoiy-siyosiy omillar. Aruz şe’riy tizimining adabiyotşunoslikda örganiliş tarixi. Aruzning şu kundagi ahvoli. Qisqa, çöziq va öta çöziq böğinlar haqida tuşunça. Böğin va hijo tuşunçalarining munosabatlari, Özaro farqli jihatlari. Hijolarning birikuvidan yuzaga keladigan aruz elementlari – vatad, sabab va fosila hamda ularning turlari haqida tuşunça. Ruknlar va ularning tuzilişi, turlari. Mafoiylun ruknining tarmoqlari, ularning öqilişi va paradigmasi haqida tuşunça. Bahrlar haqida ma’lumot. Ularning tarkibiy tuzilişi.

Kiriş imtihonining yozma iş şaklida ötkaziş tartibi va baholaş mezoni

Taynç doktoranturaga kiriş sinovlari Özbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy öquv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillaştiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi qaroriga muvofiq taşkil qilinadi.

Taynç doktoranturaga mutaxassislik böyiça bilim darajasini belgilovçi kiriş sinovi umumiy ballari quyidagi mezondan taşkil topadi:

90-100 ball (jami balning 90-100%) fanni mukammal özlaştirgan, variantda körsatilgan savollarga söz va iboralardan foydalanib, nazariy jihatdan asoslagan, çuqur va ilmiy-tahliliy tarzda yorita olgan talabgorlarga qöyiladi. Şuningdek, bunda talabgorning mustaqil könikmalari va qöşimça manbalardan foydalanganligi ham hisobga olinadi.

70-89 ball (jami balning 70-89%) fanni özlaştirgan, variantda körsatilgan savollarga söz va iboralardan foydalanib javob bermagan, lekin faqat savolning özi bilan çeklanib, tavsiya etilgan darslik va qöllanmalarda berilgan fikrlardan ijodiy foydalana olgan, qöşimça adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qöyiladi.

60-69 ball (jami balning 60-69%) fanni qisman özlaştirgan, qöyilgan savollarga qisman javob bera olgan, qöşimça adabiyotlardan foydalana olmagan talabgorlarga qöyiladi.

60 % dan kam ball savollarni yoritişda söz va iboralarga qoniqarli javob bermagan, variantdagi savollarga javoblarini töliq yorita olmagan, ilmiy jihatdan asoslamagan talabgorlarga qöyiladi.

Barça doktorantlar mutaxassislik böyiça kiruvçilarni mutaxassislik fanlardan reytinglarini aniqlaşda, baholaş mezoni quyidagi tartibda amalga oşiriladi:

– sinov bilet asosida yozma iş şaklda ötkaziladi;

– har bir biletga 5 (beş) tadan savol kiritiladi;

– har bir bilet davlat standartlari böyiça fanning asosiy tuşunçalaridan taşkil topadi;

– biletga kiritilgan har bir savol 20 (jami 100) ballik tizimda baholanadi.

TAYNÇ DOKTORANTURAGA KIRUVÇILARNI BILIMINI BAHOLAŞ MEZONI

№	Doktoranturaga kiruvçining bilim darajasi	Ball
1	Nazariy jihatdan çuqur bilimga ega bölib, mustaqil muşohada yuritib, masalaning mohiyatini tuşinib, bu haqda çuqur tasavvurga ega, ilmiy jihatdan asoslagan, qöşimça manbalardan foydalangan	18-20
2	Berilgan masala haqida mustaqil muşohada yuritgan, uning mohiyatini tuşunib, u haqda tasavvurga ega bölgan, masalaning özi bilan çeklanib, qöşimça manba va adabiyotlardan foydalana olmagan	14-17
3	Masalaning mohiyatini tuşunib, u haqda tasavvurga ega bölgan, savolga qisman javob bera olgan, qöşimça adabiyotlardan	12-13

	foydalana olmagan	
4	Berilgan masala haqida aniq tasavvurga ega bölmagan, savolga qisman javob yozgan, manbaalarda bor ma'lumotlarni töliq keltirmagan	0-11

Kiriş imtihonining test sinovi şaklida ötkaziş tartibi va baholaş mezoni

Kiriş imtihoni köp variantli test sinovi şaklida ötkazilsa har bir variant 100 ta test savollaridan iborat böladi. Test sinovini baholaş 100 ballik tizim asosida amalga oşiriladi.

Talabgorlar bilim darajasini belgilaşda 100 ta savoldan iborat test sinovi ötkazilganda:

- test sinovida 90-100 oraliğida töğri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 90-100 ball qöyiladi.
- test sinovida 70-89 oraliğida töğri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 70-89 ball qöyiladi.
- test sinovida 60-69 oraliğida töğri javobni topgan talabgorlarga mos xolda 60-69 ball qöyiladi.
- test sinovida 60 tadan kam töğri javobni topgan (60 baldan kam ball yiğgan) talabgorlar sinovdan ötmagan hisoblanadi.

Kiriş imtihoni böyiça umumiy özlaştiriş körsatkiçi 0 dan 100 balgaça baholanadi (90-100 ball – a'lo, 70-90 ball – yaxşi, 60-69 ball – qoniqarli, 0-59 ball – qoniqarsiz)

Eslatma: *Doktoranturaga kiriş imtihonlari jarayonida qöyilgan bahodan norozi bölgan talabgorlar yakuniy baholar e'lon qilingan kundan e'tiboran 24 soat muddat içida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilişga haqli. Doktoranturaga kiriş imtihonlari komissiyasi va talabgor örtasida baholaş ballari böyiça yuzaga kelişi mumkin bölgan muammolar maxsus appelyatsiya komissiyasi tomonidan körib çiqiladi hamda imtixon raisi bilan kelişilgan holda xulosa qilinadi.*

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Ş.M. Erkin va farovon, demokratik Özbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Özbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirişiş tantanali marosimiga bag'işlangan Oliy Majlis palatalarining qöşma majlisidagi nutq. – Toşkent: Özbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Ş.M. Milliy taraqqiyot yölimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqiçga kötaramiz. – Toşkent: Özbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Ş.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toşkent: Özbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Ş.M. Niyati uluğ xalqning işi ham ulug', hayoti yoruğ va kelajagi farovon böladi. – Toşkent: Özbekiston, 2019.
5. Mirziyoyev Ş.M. Milliy tiklanişdan - milliy yuksaliş sari. – Toşkent: Özbekiston, 2020.

6. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda örganiş va tarğib qilişning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya iştirokçilariga tabrigi //https://xabar.uz/uz/madaniyat/şavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va.

Asosiy adabiyotlar

7. Asadov M. Özbek adabiyoti tarixi va yangi özbek adabiyoti (öquv qöllanma). – Toşkent: Fan va ta’lim naşriyoti, 2023.

8. Boltaboyev H., Ametova U. Adabiyotşunoslik nazariyasi: Adabiyotşunoslikka kiriş. Öquv qöllanma. – Toşkent: Mumtoz söz, 2024.

9. Boltaboyev H., Qozoqboyeva D. Mumtoz adabiyotga kiriş poetika asoslari. – Toşkent: Mumtoz söz, 2023.

10. Boltaboyev N. Jahon adabiyotşunosligi tarixi. – Toşkent: Mumtoz söz, 2020.

11. Jumaxöja N., Adizova I. Özbek adabiyoti tarixi. 1-2-qism. Darslik. – Toşkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.

12. Rahmonov N. Özbek adabiyoti tarixi. – Toşkent, 2024.

13. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kiriş. Darslik. – Toşkent: Malik Print CO, 2021.

14. Asadov M. Soqiynoma: tarix va poetika. – Toşkent: Tafakkur, 2020.

15. Boltaboyev H. Fitratning adabiy-estetik qaraşlari jadid adabiyotşunosligi kontekstida. Monografiya. Mas’ul muharrir: I.Ğafurov. – Toşkent: Mumtoz söz, 2024.

16. Hamroeva O. Fitratning adabiyotşunoslikka oid qaraşlari. Monografiya. – Toşkent: Bookmany print, 2023.

17. Jöraqulov U. Navoiy “Xamsa”si tarixiy poetika kontekstida. – Toşkent: Nurafşon business, 2023.

18. Rahmonov N. Özbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinçi yarmigaça). – Toşkent: Sano-standart, 2025.

Qöşimça adabiyotlar

19. Özbek mumtoz adabiyoti namunalari / Majmua. (1-2-jildlar) Tuzuvçi, izoh va şarhlar muallifi: N.Rahmonov, H.Boltaboyev. – Toşkent: Fan, 2005, 2007.

20. Sayliyeva Z. Navoiyşunoslikda tasavvuf va badiiyat muammolari tadqiqi (Ibrohim Haqqul ijodi misolida). Monografiya. – Toşkent, 2023.

21. Sirojiddinov Ş. Alişer Navoiy. Manbalarning qiyosiy-tipolpgik, tekstologik tahlili. – Toşkent: Akademnaşr, 2011.

22. Sirojiddinov Ş. Özbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarçaşmalari. – Toşkent: Yangi asr avlodi, 2011.

23. Sirojiddinov Ş., Yusupova D., Davlatov O.Navoiyşunoslik. Darslik. – Toşkent: Tamaddun, 2018.

24. Vohidov R., Eşonqulov H. Özbek mumtoz adabiyoti tarixi. Öquv qöllanma. – Toşkent: Adabiyot jamğarmasi naşriyoti, 2006.

25. Yusupova D. Aruz alifbosi. – Toşkent: Akademnaşr, 2015.

26. Болтабоев Ҳ. Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). 1-жилд. – Тошкент: Mumtoz sўz, 2015.
27. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013.
28. Haqqul I. Navoiyga qaytiş. – Toşkent: Fan, 2007.
29. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toşkent: Özbekiston, 2016.

Xorijiy adabiyotlar

30. Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 2005.
31. Хрестоматия по теории литературы. Сост. Л.В. Осьмакова. – Москва, 1980.
32. Colin John Holcombe. Literary Theory In Depth. Ocaso Press 2021.
33. Hans Bertens. Literary Theory: The Basics. Taylor & Francis e-Library, 2007.

Elektron resurslar

34. www.lex.uz - Özbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maъlumotlari milliy bazasi.
35. http://natlib.uz
36. www.folklore.ru
37. www.alişernavoiy.uz
38. www.kutubxona.uz
39. http://www.ziyo.net
40. http://www.literature.uz